Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319711

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TRANSFORMATSIYASI: PENSIYA VA NAFAQA OLUVCHILAR DINAMIKASINING HUDUDIY TAHLILI

QURBONBOYEV ABDULLA MANSUR O'G'LI
TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasi assistenti
Elektron pochta: a.qurbonboyev@tsue.uz
https://orcid.org/0009-0008-7660-4456
+998900960024

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi qamrovining kengayish jarayonlari pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimidagi dinamikasi asosida tahlil qilingan.*

Tahlil jarayonida dinamik qatorlar usuli, mutloq o'zgarishlar, o'zgarish sur'atlari va hududlararo taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur davrda pensiya va nafaqa oluvchilar soni barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya tizimi qamrovining kengayib borayotganini tasdiqlaydi hamda hududlar kesimida differensial yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish, pensiya tizimini takomillashtirish va demografik omillarni inobatga olgan holda strategik qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy himoya, pensiya tizimi, ijtimoiy nafaqa, hududiy tahlil, dinamik qatorlar, o'sish sur'ati, ijtimoiy siyosat, demografik omillar*

KIRISH.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pensiya va ijtimoiy nafaqalar tizimi aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda muhim instrument sifatida xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, uning qamrovini kengaytirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimining transformatsiyasi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarining eng muhim bosqichlaridan biridir. So'nggi besh yil ichida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" (IHYR) orqali tizimning raqamlashtirilishi nafaqalar va pensiyalar taqsimoti landshaftini sezilarli darajada o'zgartirdi.

O'zbekistonning ijtimoiy siyosati ko'rib chiqilayotgan davrda mahalla darajasidagi yordam taqsimotining markazlashmagan mexanizmlaridan 2023-yilda tashkil etilgan Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufidagi markazlashgan

Published: 05.06.2026

Cite this article: Qurbonboyev Abdulla Mansur o'g'li (2026). O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi transformatsiyasi: pensiya va nafaqa oluvchilar dinamikasining hududiy tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319711

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

raqamli ekotizimga o‘tdi. Ushbu o‘tish inson omilini minimallashtirish va yordamning manzilliligini (targeting) oshirish zarurati bilan bog‘liq edi. 2021–2030 yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasining qabul qilinishi bolalar, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qamrab olishni kengaytirish uchun huquqiy asos yaratdi.

Bolalar nafaqasi islohotiga alohida e’tibor qaratildi. 2021-yil sentabridan boshlab bolali oilalarga yordam ko‘rsatish mezonlari qayta ko‘rib chiqildi: bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, to‘lov muddatlari esa 6 oydan 12 oygacha uzaytirildi. Bu 2021–2022 yillarda benefitsiarlar sonining keskin o‘sishiga olib keldi.
Biroq, 2024-yil boshiga kelib, 16 ta vazirlik va idora ma’lumotlarini integratsiya qiluvchi "Yagona reyestr" tizimi orqali nazoratning kuchaytirilishi natijasida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonida ma’lum bir barqarorlashuv kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, pensiya va nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimidagi dinamikasini statistik tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – 2019–2024-yillar davomida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimidagi o‘zgarishini tahlil qilish va asosiy tendensiyalarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Ijtimoiy himoya haqidagi global tushuncha so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirdi va tor doiradagi xayriya yordamidan inson kapitalini rivojlantirish hamda hayotiy sikl davomidagi xatarlarni boshqarishning kompleks vositasiga aylandi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon banki va YUNISEF kabi yetakchi xalqaro institutlar ijtimoiy himoyani aholi farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan vaziyatlarning oldini olish, boshqarish va bartaraf etishga qaratilgan choralar majmui sifatida belgilaydi. Zamonaviy tizimlar asosida XMTning 202-sonli tavsiyasida mustahkamlangan "Ijtimoiy himoyaning minimal darajalari" (Social Protection Floors) konsepsiyasi yotadi [1].

Shuningdek, Peter Townsend [2] tomonidan ilgari surilgan nisbiy kambag‘allik nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy himoya tizimi nafaqat minimal daromadni ta’minlash, balki jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni saqlashga ham xizmat qilishi lozim. Ushbu yondashuv ijtimoiy nafaqalar tizimining keng qamrovli va inklyuziv bo‘lishini talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ijtimoiy himoya ikki tomonlama rol o‘ynaydi: u nafaqat bozor islohotlarining ijtimoiy oqibatlarini yumshatadi, balki inqiroz davrida yalpi talabning barqarorlashtiruvchisi bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlarning samaradorligi ularning zaif qatlamlarni aniqlash va yordamning

manzilliligini ta’minlash qobiliyatiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi kabi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun o‘z-o‘zini band qilganlar va norasmiy sektor xodimlarining ijtimoiy himoya qamrovidan chetda qolishi, ya’ni o‘rta bo‘g‘inning yetishmasligi muammosi markaziy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda [3].

O‘zbekiston kontekstida ijtimoiy islohotlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari haqida bir qator ishlar mavjud. G. Rashidova [4] O‘zbekiston pensiya tizimi oldida turgan masalalarga atroflicha yondashadi. Rashidova o‘zining tadqiqotida mamlakat aholisining o‘sib borayotgani pensiya tizimiga bosim o‘tkazayotganini alohida ta’kidlagan. Uning fikricha, pensiya yoshini moslashtirish yoki badal stavkalarini oshirish kabi reformalarni qo‘llamasdan turib pensiya tizimi kelgusi o‘n yilliklarda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin degan fikr ilgari surilgan. Rashidova rasmiy bandlikni kengaytirish va aholining pensiya va ijtimoiy nafaqa to‘lovlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashning asosiy omili ekanligini taklif qiladi.

2023-yilda D. Karimov [5] O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish dasturini batafsil tahlil qiladi. Uning tadqiqida hukumatning ijtimoiy himoya tarmoqlarini kengaytirish borasidagi sa’y-harakatlari o’rganilgan bo‘lib, tadqiqotchi O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi shaharlarda muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsada, ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmalardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi sababli chekka hududlarga yetarlicha xizmat ko‘rsatilmayotganligi nazarda tutiladi.

Biroq, tahlil qilingan adabiyotlarda hududlar kesimida ijtimoiy siyosatni differensial yondashuv asosida takomillashtirish, demografik prognozlar asosida pensiya tizimini strategik rejalashtirish, ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish orqali resurslardan samarali foydalanish, raqamlashtirilgan tizimlar orqali benefitsiarlarni aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalalari o‘rganilmagan bo‘lib, mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni real statistik ma’lumotlar asosida kompleks tahlil qilish orqali to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimidagi dinamikasini baholash uchun rasmiy statistik ma’lumotlar bazasidan foydalanildi.

Tahlil jarayonida dinamik qatorlar tahlili, mutlaq o‘zgarish, o‘zgarish sur’atlari, taqqoslash tahlili, strukturaviy tahlil elementlari kabi statistik usullar qo‘llanildi.

Tadqiqotda ma’lumotlar vaqt qatori shaklida tizimlashtirildi va ular asosida grafik hamda jadval ko‘rinishidagi vizualizatsiyalar ishlab chiqildi. Bu esa o‘zgarish dinamikasini yanada aniqroq aks ettirish va ilmiy xulosalarni asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimidagi dinamikasi 2019–2024-yillar oralig‘ida tahlil qilindi. Tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qilgan ma’lumotlar Respublika va uning hududlari bo‘yicha vaqt qatorlari shaklida tizimlashtirildi hamda ularning o‘zgarish tendensiyalari statistik usullar yordamida baholandi.

1-jadval.


Respublika bo‘yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni hududlar kesimida (2019-2024 yillar) ming.kishi

Hududlar/Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	3878,4	4029,4	4253,1	4578,1	4827,3	4945,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	211,2	219,4	231,2	250,2	263,5	267,6
Andijon viloyati	358,0	372,6	393,9	424,1	444,7	458,6
Buxoro viloyati	236,2	245,0	257,7	274,8	289,1	298,4
Jizzax viloyati	133,7	139,9	149,3	164,8	175,4	178,5
Qashqadaryo viloyati	340,4	357,4	381,6	419,0	448,3	460,6
Navoiy viloyati	129,4	135,3	142,7	155,6	165,1	169,1
Namangan viloyati	298,9	312,4	332,3	355,5	377,3	389,8
Samarqand viloyati	412,5	429,5	455,9	493,5	523,3	532,8
Surxondaryo viloyati	266,2	279,8	297,1	322,3	341,9	348,8
Sirdaryo viloyati	100,1	104,4	110,9	120,1	126,9	130,2
Toshkent viloyati	372,8	385,0	392,7	419,7	437,8	446,0
Farg‘ona viloyati	442,9	461,3	487,5	520,9	546,8	561,5
Xorazm viloyati	210,0	217,7	230,0	248,1	262,8	271,9
Toshkent shahri	366,1	369,7	390,3	409,5	424,4	431,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan davrda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni respublika bo‘yicha izchil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, 2019-yilda 3878,4 ming kishini tashkil etgan mazkur ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 4945,3 ming kishiga yetgan. Bu esa ijtimoiy himoya tizimi qamrovining kengayib borayotganini va davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning izchil rivojlanayotganini anglatadi.

Respublika bo‘yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni dinamikasi



1-rasm. ***O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.***

Mazkur grafikda 2019–2024-yillar davomida O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining dinamikasi aks ettirilgan. Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan davr mobaynida ko‘rsatkich barqaror va uzluksiz o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Xususan, 2019-yilda 3878,4 ming kishini tashkil etgan pensiya va nafaqa oluvchilar soni 2024-yilga kelib 4945,3 ming kishiga yetgan. Bu esa mazkur davrda umumiy o‘sish 1066,9 ming kishini tashkil etganini ko‘rsatadi. Grafikdagi chiziqning izchil yuqoriga yo‘nalganligi ijtimoiy himoya tizimi qamrovining kengayib borayotganini ifodalaydi.

Shuningdek, grafikda o‘sish sur’atlari yillar kesimida bir xil emasligi kuzatiladi. Eng yuqori o‘sish 2021–2022-yillar oralig‘ida qayd etilib, bu davrda ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan. Mazkur holat bolalar nafaqasini tayinlashning yangi qoidalari va yosh chegarasining kengaytirilishi bilan izohlanishi mumkin.

2023–2024-yillarda esa o‘sish davom etgan bo‘lsa-da, uning nisbiy sur’ati biroz sekinlashganini kuzatish mumkin. Bu esa tizimning ma’lum darajada barqarorlashayotganini yoki qamrov darajasi yuqori bosqichga yetayotganini bildiradi.

Umuman olganda, grafik tahlili O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa tizimi izchil rivojlanib borayotganini, ijtimoiy himoya qamrovi kengayib

borayotganini hamda ushbu jarayon uzoq muddatli ijobiy trendga ega ekanligini tasdiqlaydi.(1-rasm).

2-jadval.

Respublika bo‘yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar o‘zgarishi

Yillar	Umumiy pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni (ming kishi)	Mutlaq o'zgarish (ming kishi)	O‘zgarish sur’ati (%)
2019	3878,4	-	-
2020	4029,4	151	3,89
2021	4253,1	223,7	5,55
2022	4578,1	325	7,64
2023	4827,3	249,2	5,44
2024	4945,3	118	2,44

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mazkur jadvalda 2019–2024-yillar davomida O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o‘zgarishi, ya’ni mutlaq o‘sish va o‘sish sur’atlari aks ettirilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan davrda mazkur ko‘rsatkich barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Xususan, 2020-yilda pensiya va nafaqa oluvchilar soni 2019-yilga nisbatan 151 ming kishiga oshib, o‘sish sur’ati 3,89% ni tashkil etgan. 2021-yilda esa o‘sish hajmi 223,7 ming kishiga yetib, o‘sish sur’ati 5,55% ga ko‘tarilgan. Bu ijtimoiy himoya tizimi qamrovi kengayayotganining dastlabki bosqichlarini ko‘rsatadi.

Eng yuqori o‘sish 2022-yilda kuzatilgan bo‘lib, mutlaq o‘sish 325 ming kishini, o‘sish sur’ati esa 7,64% ni tashkil etgan. Ushbu davrni ijtimoiy siyosatning faol bosqichi sifatida baholash mumkin.

Keyingi yillarda, ya’ni 2023-yilda o‘sish davom etgan bo‘lsa-da, uning sur’ati 5,44% gacha pasaygan. 2024-yilda esa o‘sish sezilarli darajada sekinlashib, mutlaq o‘sish 118 ming kishini, o‘sish sur’ati esa 2,44% ni tashkil etgan.

Mazkur holat shuni anglatadiki, dastlabki yillarda ijtimoiy himoya tizimining qamrovi tez kengaygan bo‘lsa, keyingi bosqichda bu jarayon nisbatan barqarorlashgan. Ya’ni, tizim asta-sekin to‘yinganlik darajasiga yaqinlashayotganini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, jadval ma’lumotlari pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining ijobiy dinamikasini, ammo o‘sish sur’atlarining vaqt o‘tishi bilan pasayish tendensiyasini ko‘rsatadi. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishida intensiv bosqichdan ekstensiv bosqichiga o‘tilayotganini bildiradi.

Hududlar kesimidagi tahlil demografik salohiyat va urbanizatsiya darajasi bilan bog‘liq sezilarli farqlarni ko‘rsatadi. Aholisi zich joylashgan Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyati mutlaq ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda.

3-jadval.

Respublika bo‘yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar tarkibida yetakchi hududlar

Hudud/Yillar	2019-yil	2024-yil	Mutlaq o‘zgarishi (ming kishi)	O‘zgarish sur’ati (%)
Samarqand viloyati	412,5	532,8	120,3	29,16
Farg‘ona viloyati	442,9	561,5	118,6	26,78
Andijon viloyati	358	458,6	100,6	28,1
Qashqadaryo viloyati	340,4	460,6	120,2	35,31
Toshkent viloyati	372,8	446	73,2	19,63
Toshkent shahri	366,1	431,5	65,4	17,86

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakat doimiy aholisining 11,4% qismiga ega bo‘lgan Samarqand viloyati eng yuqori mutlaq o‘sish ko‘rsatkichlaridan birini qayd etgan. Qashqadaryo viloyati esa maksimal nisbiy o‘sish sur’atini (35,31%) ko‘rsatdi, bu yuqori tug‘ilish va qishloq aholisining ulushi bilan bog‘liq.

Navoiy viloyati kabi aholi zichligi past va sanoatga ixtisoslashgan hududlar mutlaq ko‘rsatkichlarda eng kam benefitsiarlarga ega:

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

4-jadval.


Respublika bo‘yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar tarkibida quyi chegaradagi hududlar

Hudud/Yillar	2019-yil	2024-yil	Mutlaq o‘zgarish (ming kishi)	O‘zgarish sur’ati (%)
Navoiy viloyati	129,4	169,1	39,7	30,68
Sirdaryo viloyati	100,1	130,2	30,1	30,07
Jizzax viloyati	133,7	178,5	44,8	33,51

Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, quyi darajadagi hududlarda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining o‘sish sur’atlari nisbatan yuqori bo‘lib, bu “past baza effekti” bilan izohlanadi. Ya’ni boshlang‘ich ko‘rsatkichlarning pastligi natijasida nisbiy o‘sish yuqori ko‘rinadi.

Shu bilan birga, ushbu hududlarda ham ijtimoiy himoya tizimi qamrovi izchil kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Bu esa davlat ijtimoiy siyosatining hududlar kesimida ham muvozanatli ravishda amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

2024-yilda hududlar kesimida nafaqa oluvchilar soni



2-rasm. ***O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.***

Mazkur grafikda 2024-yilda Respublikasi hududlari kesimida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining taqsimoti aks ettirilgan. Grafik tahlili hududlar o‘rtasida sezilarli differensiallik mavjudligini ko‘rsatadi.

Xususan, eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida kuzatilib, 561,5 ming kishini tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida 532,8 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida 460,6 ming kishi va Andijon viloyatida 458,6 ming kishi qayd etilgan. Ushbu hududlar Respublika bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallab, pensiya va nafaqa oluvchilar soni jihatidan yuqori ulushga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘rta darajadagi ko‘rsatkichlar Toshkent viloyati (446,0 ming kishi), Toshkent shahri (431,5 ming kishi), Namangan viloyati (389,8 ming kishi) va Surxondaryo viloyati (348,8 ming kishi) hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu hududlar ijtimoiy himoya tizimining qamrovi bo‘yicha o‘rtacha darajani ifodalaydi.

Eng past ko‘rsatkichlar esa Sirdaryo (130,2 ming kishi), Navoiy (169,1 ming kishi) va Jizzax (178,5 ming kishi) viloyatlarida kuzatiladi. Ushbu hududlarda pensiya va nafaqa oluvchilar sonining nisbatan kamligi, avvalo, aholi sonining pastligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, grafik tahlili pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining hududlar kesimidagi taqsimoti notekis ekanligini, ya’ni aholisi ko‘p bo‘lgan hududlarda mazkur ko‘rsatkich yuqori, aholisi kam hududlarda esa past darajada shakllanishini tasdiqlaydi. Bu esa ijtimoiy himoya tizimi qamrovi demografik omillar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.(2-rasm).

Xulosa va natijalar

O‘tkazilgan statistik tahlillar natijasida O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining 2019–2024-yillar davomida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi. Mazkur davrda umumiy ko‘rsatkich 3878,4 ming kishidan 4945,3 ming kishiga yetib, 1066,9 ming kishilik o‘sish qayd etildi.

Tahlil natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Birinchidan, ijtimoiy himoya tizimi qamrovi izchil kengayib bormoqda. Bu davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning samaradorligini va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashib borayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, o‘sish sur’atlarining dinamikasi notekis xarakterga ega bo‘lib, 2022-yilda maksimal darajaga yetgan (7,64%), keyingi yillarda esa nisbatan sekinlashgan. Bu holat dastlabki bosqichda tizimning intensiv kengayishi, keyingi bosqichda esa barqarorlashuv jarayoni yuz berayotganini anglatadi.

Uchinchidan, hududlar kesimida sezilarli differensiallik mavjud. Aholisi ko‘p va demografik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar (Farg‘ona, Samarqand,

Qashqadaryo viloyatlari) yetakchi o‘rinlarni egallagan bo‘lsa, aholisi kam hududlar (Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari) quyi ko‘rsatkichlarni namoyon etgan.

To‘rtinchidan, 2024-yilda o‘sish sur’atining pasayishi ijtimoiy himoya tizimining ma’lum darajada to‘yinganlik bosqichiga yaqinlashayotganini yoki nafaqa oluvchilarni aniqlash va tanlash mexanizmlarining takomillashganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- hududlar kesimida ijtimoiy siyosatni differensial yondashuv asosida takomillashtirish;
- demografik prognozlar asosida pensiya tizimini strategik rejalashtirish;
- ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish orqali resurslardan samarali foydalanish;
- raqamlashtirilgan tizimlar orqali benefitsiarlarni aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini, uning qamrovi kengayib, samaradorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirish va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/xmt-unicef-va-jahon-bankining-ijtimoiy-himoya-agentligining-tashkil-etilishini
2. Townsend, P. (1979). Poverty in the United Kingdom: A Survey of Household Resources and Standards of Living. University of California Press.
3. https://www.socialprotection.org/gimi/ShowCountryProfile.action?iso=UZ
4. Rashidova, G. (2023). Demographic Changes and the Sustainability of the Pension System in Uzbekistan. National University of Uzbekistan, pp. 102-134.
5. Karimov, D. (2023). Evaluating the Effectiveness of Social Assistance Programs in Uzbekistan. University of World Economy and Diplomacy, pp. 60-98.
6. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
7. OECD — Digital Education Outlook 2021 and The potential impact of AI on equity and inclusion in education (2024). OECD
8. UNESCO — Artificial intelligence in education resources and gender/digital inclusion materials.
9. stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

10. imv.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
11. prezident.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning rasmiy sayti.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

YANGI O’ZBEKISTONDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI STATISTIK TADQIQ ETISH

RAZIKOVA G.SH.
TDIU, katta o’qituvchi

Annotatsiya: Ushbu tezisda aholini ish bilan bandligini statistik tadqiq etishning nazariy va amaliy jihatlari, mehnat bozoridagi o’zgarishlar, bandlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar hamda statistik tahlil usullari yoritilgan. Shuningdek, aholi bandligini oshirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Aholi bandligi, mehnat bozori, ishsizlik, statistik tahlil, iqtisodiy faol aholi, bandlik darajasi, mehnat resurslari.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bugungi bosqichida mamlakatlar taraqqiyoti darajasini baholashda nafaqat uzoq davr ustuvor ahamiyat kasb etgan iqtisodiy ko’rsatkichlarning, balki ustun ravishda aholi turmush darajasi va sifatini namoyon etuvchi ijtimoiy tavsifdagi ko’rsatkichlarning ham o’rni ortib bormoqda. Mazkur ko’rsatkichlarning asosiy qismi aholi bandligi bilan bog’liq bo’lgan ko’rsatkichlardan tarkib topganligi, rivojlangan mamlakatlarda bugungi kunda iqtisodiy o’sishning asosiy omili sifatida “inson kapitali”ga urg’u berilayotganligi inobatga olinsa, aholi bandligi va u bilan bog’liq munosabatlarning ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo’ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ish bilan ta’minlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim ko’rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Aholining samarali bandligi aholi daromadlarini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Aholini ish bilan bandligini statistik tadqiq etish mehnat bozoridagi jarayonlarni baholash, ishsizlik darajasini aniqlash hamda bandlik siyosati samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Statistik tadqiqotlarda mutlaq, nisbiy va o’rtacha ko’rsatkichlar, dinamik qatorlar, indekslar va korrelyatsion tahlil usullaridan keng foydalaniladi.

Ma’lumki, milliy hisoblar tizimi standartlariga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti o’zgarishiga bandlik, ishsizlik hamda yoshlarning savodxonlik darajasi to’g’ridan-to’g’ri ta’sir qiladi. “Bandlik” iqtisodiy kategoriya sifatida ish joyidan qat’iy nazar, kishilar o’rtasida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish borasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig’indisi hisoblanadi.

Bandlik darajasiga demografik omillar, iqtisodiy o’sish sur’ati, investitsiyalar hajmi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji kabi omillar ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, xizmat ko’rsatish sohasi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yangi ish o’rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.